

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA
RASM CHIZISHGA O’RGATISHNING MAZMUNI, USULLARI VA
VAZIFALARI**

Boltayeva Manzura Boyturayevna

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha
ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim –tarbiya jarayonlarida bolalarni rasm chizishga o’rgatish mashg’ulotlarini tashkil etish mazmuni , faoliyatni amalga oshirish usullari va rasm chizishga o’rgatishning umumiy va yakka tartibli vazifalari haqida so’z boradi. Faoliyatlarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda bolalarning psixologik rivojlanish jarayonlarida tasviriylar faoliyatning o’rni va ta’siri hamda ularni amalga oshirishda maqsadli ta’lim –tarbiya jarayonlariga yangicha bir metodikalar va uslublar orqali yondashish va bu yondashuvlar natijasida bolalarda kreativlik g’oyalarini yoshlikdan shakllantirib borish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Ta’lim, tarbiya, mazmun, uslub, vazifalar, ijodiy faoliyat , innovatsion texnologiyalar,bolalar ijodkorligi,yangi jahon tajribalari,psixologik rivojlanish

Анноэфция: В статье рассматриваются содержание организации занятий по обучению детей рисованию в образовательном процессе дошкольных образовательных организаций, методика реализации деятельности, общие и частные задачи обучения рисованию. При организации деятельности наряду с современными технологиями рассматриваются роль и влияние изобразительной деятельности на психологическое развитие детей, а также реализация целевых образовательных и воспитательных процессов посредством новых методик и методов, и как следствие этих подходов рассматривается формирование творческих идей у детей с раннего возраста.

Ключевые слова: Образование, воспитание, содержание, метод, задачи, творческая деятельность, инновационные технологии, детское творчество, новый мир, психологическое развитие

Annotation: This article discusses the content of organizing classes on teaching children to draw in educational and educational processes in preschool educational organizations, methods of implementing activities, and general and individual tasks of teaching drawing. Along with modern technologies in

organizing activities, the role and influence of visual activity in the psychological development of children, as well as the approach to targeted educational and educational processes through new methodologies and methods in their implementation, and the formation of creative ideas in children from a young age as a result of these approaches, are discussed.

Keywords: Education, upbringing, content, method, tasks, creative activity, innovative technologies, children's creativity, new world experiences, psychological development

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rasm chizish nafaqat ijodiy ifoda vositasi, balki tafakkur, tasavvur va mayda motorika rivojlanishining muhim omilidir. Rasm chizish orqali bolalar o‘z fikrlarini ifodalash, olamni anglash va hissiyotlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rasm chizish mashg‘ulotlari bolalarning estetik didini shakllantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rasm chizish orqali ko‘rish va tasviriy idrokni rivojlantirish – bolalar shakl, rang va nisbatlarni ajratishni o‘rganadilar. Qo‘l va barmoqlar motorikasini mustahkamlash orqali qalam, bo‘yoq va cho‘tkalar bilan ishslash ko‘nikmalari orqali harakat koordinatsiyasi rivojlanadi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish orqali esa bolalar turli mavzularda erkin tasvir yaratish orqali o‘z dunyoqarashini kengaytiradi. Tasavvur va xotirani rivojlantirish yo‘li bilan chizish jarayonida bolalar oldin ko‘rgan narsalarini eslab, qayta aks ettiradilar. Rasm chizish faoliyati bolalarda hissiy va estetik tarbiyaning shakllanishi natijasida ularda san’at orqali go‘zallikni anglash va qadrlash shakllanib boradi.

Bolalarni rasm chizishga o‘rgatish jarayonlarini to‘g’ri tashkil etish usullari va vazifalarini takomillashtirish bu bolalarni rasm chizishga o‘rgatishda asosan pedagogik usullardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Pedagogik usullar orqali ya’ni ko‘rsatish va tushuntirish usulini qo’llab tarbiyachi dastlab bolalarga rasm chizish jarayonini ko‘rsatadi va tushuntiradi. Masalan, “Quyonni qanday chizamiz?” yoki “Daraxt barglarini qanday bo‘yoqlash mumkin?” kabi savollar bilan jarayon izchil tushuntiriladi. Mavzu tanlab jarayonni boshlash uchun ko‘rsatmalar berilgandan so‘ng erkin ijodiy chizish usulidan foydalanib bolalarga o‘z xohishlariga ko‘ra istalgan narsani chizish imkoniyati beriladi. Bu usul bolalarning tasavvurini rivojlantiradi va ularda o‘z fikrlarini ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’limda bolalarga rasm chizish ko‘nikmalari qadam-baqadam o‘rgatib boriladi. Rasm chizish murakkab jarayon bo‘lgani uchun uni bosqichma-bosqich o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, hayvon yoki inson chizish uchun avval dumaloq shakl, so‘ngra tanasi, keyin esa qo‘srimcha

detallar chizish o‘rgatiladi. Bundan tashqari har faoliyatni bolalarga o‘rgatish va tushuntirish jarayonlarida bolalarning asosiy faoliyati o‘yin orqali o‘rgatish usuli bolalar uchun rasm chizish jarayonini qiziqarli qilish hamda o‘yin elementlaridan foydalanish mumkin. Masalan, “Bulutlar ichida yashirin hayvonni toping va chizing” kabi o‘yinlar ularning qiziqishini oshiradi. Bolalarda yakka tartibda va guruhiy ishslash ham ijobjiy samara kasb etadi. Faqat buning uchun pedagog bolalarga faoliyat jarayonlarida qanday tartibda ishslash kerakligini yaxshi anglagan holda ularga sharoit yaratish zarur. Bolalar birgalikda rasm chizib, o‘z fikrlarini o‘rtoqlashish orqali ularda yangi kreativ g’oyalar shakllanib boradi. Masalan, katta qog‘ozga jamoaviy rasm chizish orqali hamkorlik va ijodiy muhit shakllanadi. Musiqa yoki ertak asosida rasm chizish esa bolalar ertak tinglab yoki musiqani eshitib, o‘z his-tuyg‘ularini rasm orqali ifoda etish ularning abstrakt fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Bolalarmi rasm chizishga o‘rgatishning vazifalari bu rasm chizish mashg‘ulotlari quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish – tasviriy san’at orqali bolalar erkin ifodalananishni o‘rganadilar.

Qo‘l motorikasini rivojlantirish – qalam, bo‘yoq va cho‘tkalar bilan ishslash orqali barmoqlar harakati takomillashadi.

Tasviriy savodni shakllantirish – asosiy shakllar, ranglar va soyalar haqida bilim beriladi.

Estetik did va san’atga muhabbat uyg‘otish – chiroyli va ijodiy rasm chizishga rag‘batlantirish.

Diqqat va sabr-toqatni rivojlantirish – rasm chizish jarayonida bolalar muayyan vaqt davomida e’tiborini bir joyga jamlaydilar.

Ijtimoiy moslashuv va hamkorlikni rivojlantirish – bolalar birgalikda ishslash orqali muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Rasm chizish orqali bolalarda shakllanadigan psixologik jarayonlar va yangicha fikrlash faoliyatini kengaytishida rasm chizish mактабгача yoshdagи bolalar uchun nafaqat ijodiy mashg‘ulot, balki psixologik rivojlanishning muhim vositasidir. Chizish jarayoni bolalarning hissiy, kognitiv va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Rasm chizish orqali shakllanadigan asosiy psixologik jarayonlar va fikrlash faoliyati kengayishining ahamiyati juda muhimdir. Rasm chizish orqali bolalarda shakllanadigan psixologik jarayonlar bolalar ruhiy rivojlanishiga ko‘plab jihatlardan ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayon bolalarda quyidagi psixologik xususiyatlarni shakllantiradi:

Idrok va sezgi rivojlanish jarayonida rasm chizish orqali bolalar turli ranglar, shakllar va nisbatlarni idrok qilishni o‘rganadilar. Ular atrof-muhitdagi

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

narsalarni kuzatib, ularning tuzilishini tushuna boshlaydilar. Chizish davomida tasviriy idrok va vizual tafakkur mustahkamlanadi.

Tasavvur va ijodiy tafakkur rivojlanishi jarayonida esa rasm chizish bolalarning fantaziyasini kengaytiradi, chunki ular reallikni o‘zlarining tasavvurlariga mos ravishda aks ettiradilar. Bolalar rasmda o‘z kechinmalari va orzularini ifodalash orqali ijodiy fikrlashga o‘rganadilar. Ular mavjud shakllar va ranglarni o‘ziga xos usulda birlashtirish orqali kreativ tafakkurni rivojlantiradilar.

Rasm chizishda bolalar oldin ko‘rgan va eslagan narsalarini qayta yaratishga harakat qiladilar, bu esa xotira va diqqatni rivojlantirishni mustahkamlaydi. Chizish jarayoni davomida bolalar ma’lum shakllarni chizishda e’tiborini bir joyga jamlaydilar, bu esa diqqat markazini shakllantirishga yordam beradi.

Rasm chizish bolalar uchun o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash vositasidir. Ular o‘z kayfiyatini ranglar va shakllar orqali ifoda qiladilar, bu esa hissiy barqarorlikka ijobiy ta’sir qiladi. Shaxsiy tajriba va his-tuyg‘ularni rasmda aks ettirish orqali stress va tashvishlarni kamaytirish mumkin.

Qalam, bo‘yoq va cho‘tkalar bilan ishlash bolalarda qo‘l motorikasi va harakat koordinatsiyasi rivojlantiradi. Barmoqlar harakati mustahkamlanib, yozuvga tayyorgarlik jarayoni tezlashadi. Ko‘z va qo‘l harakatlari muvofiqlashgan holda ishlashi tufayli bolalarning umumiy harakat koordinatsiyasi yaxshilanadi.

Bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda rasm chizish muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon turli fikrlash turlarini rivojlantirishga yordam beradi hamda ma’lum bir tasvirni ifodalashda ya’ni aks ettirishda obrazli (tasviriy) fikrlashni rivojlantirish jarayonida o‘z xayollaridagi obrazlarni rasm orqali gavdalantirb qog‘ozga tushirishni o‘rganadilar.

Masalan, ular “uy” tushunchasini chizganda, faqat real binoni emas, balki o‘z orzularidagi uyni ham tasvirlashlari mumkin.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirish orqali esa bolalar rasm chizishda kompozitsion tartibga rioya qilishni o‘rganadilar. Masalan, rasmda odamning qo‘li boshidan pastroqda bo‘lishi kerakligini tushunish orqali mantiqiy bog‘liqlik hosil qiladilar. Ular o‘xhash va farqli elementlarni solishtirishga o‘rganadilar, bu esa analiz va sintez qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Muammoli fikrlash va ijodiy yechim toppish jarayonida esa rasm chizishda bolalar muayyan muammolarni hal qilish yo‘llarini izlaydilar. Masalan, “Quyoshni qanday chizish mumkin?” yoki “Daraxt barglarini qanday realistik ko‘rsatish mumkin?” kabi savollar bolalarni muammoga ijodiy yondashishga o‘rgatadi. Ular ranglarni birlashtirish, yangi shakllarni topish va kompozitsiya yaratish orqali innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tafakkur elastikligini oshirish bilan bolalarda rasm chizishda turli xil badiiy texnikalardan foydalanish orqali tafakkurlarini kengaytiradilar. Masalan, oddiy qalam bilan chizilgan rasm akvarel yoki bo‘yoq yordamida yanada jonlantirilishi mumkinligini tushunadilar.

Analitik va sintez fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali esa bolalar tasvir chizishda butun ob’ektni qismlarga ajratib tushunishni o‘rganadilar. Masalan, odam chizishda avval bosh, so‘ngra tanani, keyin qo‘l va oyoqlarni chizish orqali strukturalarni anglay boshlaydilar.

Rasm chizish maktabgacha yoshdagি bolalar uchun nafaqat qiziqarli mashg‘ulot, balki ularning psixologik va aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan vositadir. Ushbu jarayon bolalarning idrok, tasavvur, xotira, diqqat va hissiy ifodalanish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rasm chizish orqali ular turli fikrlash turlarini o‘zlashtiradilar va muammoli holatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Pedagoglar va ota-onalar rasm chizish jarayonini bolalar uchun yanada qiziqarli va samarali qilishlari uchun ularni qo‘llab-quvvatlashi va turli badiiy texnikalarni qo‘llashi muhimdir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonlari zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar va kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Rasm chizish maktabgacha yoshdagи bolalar uchun nafaqat ijodiy faoliyat, balki ularda hozirgi zamon talablariga mos fikrlash tizimini shakllantirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Hozirgi dunyoda bolalar nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni mustaqil tahlil qilish, yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion fikrlashga o‘rganishlari kerak. Rasm chizish ushbu maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy rasm chizishdan farqli ravishda, zamonaviy metodlar bolalarni o‘zgacha tasavvur qilishga undaydi. Masalan, ularga tayyor shakllarni nusxalash emas, balki muayyan vaziyatni o‘z xayollari bilan tasvirlash topshirig‘i beriladi. Bu bolalarda o‘z g‘oyalarini ifodalash va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bugungi kunda texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda, shuning uchun raqamli chizish vositalari (masalan, planshetlarda rasm chizish, grafik dizayn dasturlari) bolalar ijodiy tafakkurini kengaytirishga yordam beradi. Zamonaviy interfaol ta’lim platformalarida bolalar virtual muhitda rasm chizish orqali yangi texnologiyalarga moslasha oladi.

Interfaol yondashuvni qo‘llash – Rasm chizish darslarini texnologiyalar bilan birlashtirish (masalan, raqamli chizish dasturlaridan foydalanish).

Ijodiy topshiriqlar berish – Oddiy nusxa ko‘chirish emas, balki mavzuli va fantaziya asosidagi rasm chizish mashg‘ulotlarini tashkil qilish.

Bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish – Rasm chizishda ularga tanlov erkinligini berish va o‘z g‘oyalarini ifodalash imkoniyatini yaratish.

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Krossover yondashuvini qo'llash – Rasm chizishni boshqa fanlar bilan bog'lash (masalan, matematika va geometriya bilan integratsiya qilish).

Guruhiy ishlar va tanlovlar tashkil qilish – Bolalar birgalikda ishlash orqali jamoaviy ijodiy tafakkurni rivojlanirishlari mumkin.

Xulosa: Hozirgi zamon bolalaridan faqatgina tayyor bilimlarni o'zlashtirish emas, balki mustaqil va kreativ fikrlash talab qilinadi. Rasm chizish jarayoni bolalarning idrok, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va yangicha yondashuvlarni shakllantirishga katta hissa qo'shamdi. Zamonaviy texnologiyalarni chizish jarayoniga qo'shish esa bolalarning raqamli va innovatsion tafakkurini rivojlanirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rasm chizish mashg'ulotlari bolalarning estetik va ijodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar turli usullardan foydalanib, bolalarga rasm chizishni o'rgatar ekan, ularning qiziqishini saqlab qolish va rivojlanirish muhim ahamiyatga ega. Rasm chizish faqat san'at emas, balki bolalarning nutq, tafakkur, tasavvur va hissiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan samarali vositadir. Ota-onalar va pedagoglar ushbu jarayonda bolalarni qo'llab-quvvatlab, ularning ijodiy rivojlanishiga sharoit yaratishlari lozim. Shu orqali bolalar kelajakda har qanday sohada muvaffaqiyatli bo'lishi va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oripov B. “Tasviriy san'at darsini samaradorligini oshirish yo'llari”. Toshkent.- 1983 yil
2. B. N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogic texnalogiyasi, didaktikasi va metodikasi. (o'quv-metodik qo'llanma) Toshkent. Ilm-ziyo-2013.
3. Muhammedovich, S. U. B. Problems of Teaching Drawing at School. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development..
4. Ortiqboy, S. S., & Makhsudali, J. (2022). A Desire Sung in a Pattern. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN.
- 5.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil.
- 6 . "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil.
7. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakk^" Nashriyoti Toshkent - 2019
8. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.